

HAMID OLIMJON ASARLARIDA O`XSHATISHLARDAN FOYDALANISH

Fayziqulova Gulhayo Norpo'lat qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti,
gulhayofayziqulova @ gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6178673>

Annotatsiya: Maqolada Hamid Olimjon shaxsiyati, uning she'rlaridagi o`xshatish san`ati, bu san`atning o`ziga xosligi va qo`llanilishiga oid qator misollar, tahlillar ko`rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** Hamid Olimjon, she'r, o`xshatish, asar, ijod, tahlil.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizda ijod qilgan va adabiyotimiz rivojiga hissa qo`shgan shoir, adib, yozuvchi va boshqa ijodkorlarga bo`lgan e'tibor yuksak darajaga ko'tarildi. Shu jumladan Hamid Olimjonning ijodi, asarlarining o`rganilishi, ommaga tanishtirilishi kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 23-avgustdagi "O'zbekiston ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo`shgan marhum fan, adabiyot va san`at arboblari mukofotlash to'g'risida"gi PF-3472-sonli Farmoniga binoan Hamid Olimjon "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi.¹ Undan tashqari hukumat qarorlariga ko'ra qator ko'cha, xiyobonlarga shoirning nomi berildi.

Shoirning bolalik chog'laridanoq folklarga alohida mehr qo'yishiga, xalq shoirlari bilan ko'p yillar davomida hamnafas, hamdard va ijodiy aloqada bo'lishiga bobosi Mulla Azim sababchi bo'lgan. Chunki, u Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan shaxsan tanish, hayotda qadr-don va do'st bo'lgan. Xalq shoirining aytishicha, vaqti-vaqti bilan Jizzaxga borib, do'stining ya'ni Azim boboning uyida, bir hafta, ikki hafta turib, qadr-donlariga qo'shiq aytib qaytgan. Shu asnoda shoirda betakror o`xshatish qobiliyati shakllana bordi.

Hamid Olimjonning ayrim asarlaridagi badiiy o'ziga xoslikni ilmiy tadqiq etish bu ijodkorning milliy adabiyotimizdagi o'rnini ko'rsatishga xizmat qiladi. Hamid Olimjonning mashhur «O'rik gullaganda» she'ri adabiy stereotiplardan xoli ravishda tahlil etilsa, shoirning o`xshatish mahorati darajasi qanchalik yuksak ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Juda ohista, jo'ngina axborotdan boshlangan ushbu she'rda poetik tasvir xabar berishdan tuyg'ular jo'shqinligi, sezimlar junbushini aks ettirish sari

¹ www.lex.uz

bosqichma-bosqich yuksalib boradi. She'arning birinchi baytida hissiyot, tuyg'u, munosabat mutlaqo aks etmaydi, bu satrlar faqat xabar tashiydi, xolos:

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...
Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

She'arning keyingi bandlarida gullab turgan o'rikning latif manzarasi chiziladi. O'rik gullashida go'zallik borligi shaksiz, ammo u o'z holicha poeziya bo'lolmaydi. Lekin Hamid Olimjonning sinchkov poetik nigohi o'rik novdalaridagi gullarda shunchaki ko'zni quvnatuvchi chechakni emas, balki tiriklik g'unchalarini ko'radi va buni o'quvchiga ham ko'rsata oladi. O'sha misralarda guldan g'o'ra, undan meva, mevadan mag'iz, o'rikdan ko'chat deganlaridek, hayotning uzluksiz davomiyligi aks etadi. Shu bois ularning «*hayot otini*» aytayotgani tasvirida sun'iylik yo'q. Hayotning shunday betakror go'zalligidan o'zgalar ham bahramand bo'lishini istagan shoir gulning totini olib ketgan «*shabboda qurg'ur*»dan g'ashlanmasligi tasvirining chinligi ham shundan.

«O'rik gullaganda» she'rida yorug' nur qanchalik ko'p bo'lsa, «Ofeliyaning o'limi»da zulmatga cho'mgan ruhiyat tafti shunchalik ustuvor. Oshiq ham, ma'shuqa ham pok, ularning niyatlariga g'araz, amallariga yovuzlik aralashmagan. Lekin hayotning o'zi nopok va shafqatsiz, odamlararo munosabatlarda esa yovuzlik hukmron. Shu sabab sevgi toptaladi, go'zallik o'lim topadi. She'arning lirik qahramoni — aqlga sig'mas adolatsizlikni ko'rib, sarosimaga tushgan kishi. «O'rik gullaganda» o'quvchini baxtdan entiktirsa, bu she'r baxtsizlikdan nafasni qaytaradi. Ko'rinadiki, Hamid Olimjon faqat shodlikni kuylamagan, balki hamisha baxtga intilgan insonning umr yo'lidagi qorong'i va yorug' bekatlarni haqqoniy aks ettirgan.

Bu hayol so'nsizdir, osmon kabi teng,
Bu hayol tuganmas hech hali-beri.
Uning boyliklari umrlarga teng,
Hamon belgisizdir boshlangan yeri.

“Bu hayol” – shoir nazdida yaratuvchi xalq ruhi. Ommaning badiiy ijodkorlik ruhi-so'z san'atining boshlangan yeri va davri esa, darhaqiqat, belgisiz va noayondir. U bitmas-tuganmas va yashnab-yasharib boruvchi xazinadirki, “u sira to'xtamas, toshlar doimo, qilib bo'larmikin uni hech bayon?”

Sheʼrning ikkinchi qismida xalq dostonlariga har doimo jon baxsh etuvchi oʻlmas mavzulardan biri muhabbat mavzusi kuylangan. Bu kuyda oʻzbek sheʼriyatida ishqiy sheʼrlarnig gultojini yaratgan Hamid Olimjonning oʻxshatishi kuychining hayoli bilan jipslashib – tutashib ketadi:

Ayriliqqa tushib yigʻlar ikki yor,
Birisi intizor va birisi xor.
Sabrlar tugadi, sindi kosasi
Gʻam bilan siyraydi guldayin diydor
Osmon kurshamishdir tuproq yuzini
Bahoriy dashtlarga, gul vodiylarga
Oybarchin tikmishdir qaro koʻzini.

Yuqorida oʻxshatishning qiyosiy turini koʻrish mumkin. “Guldayin diydor”, yaʼni diydor gul kabi goʻzal, latofatli.

Yomgʻir kabi oʻq yogʻ dirsam
Toʻkiladi u tutday.
Yuragini yashin kabi
Doim yorib oʻtaman,
Daryo boʻlib toshaman-u
Oʻz qaʼrimga yutaman.

Shoir yuqoridagi sheʼrda “yomgʻir kabi”, “tutday”, “yashin kabi”, “daryo boʻlib” kabi oʻxshatishlarni qoʻllash orqali sheʼr taʼsirchanligini oshirgan.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Hamid Olimjon asarlaridagi oʻxshatishlar oʻzbek adabiyotining alohida mavzusi hisoblanadi. Shoirning oʻxshatish sanʼati adabiyotimizning oʻziga xos hodisasidir. U qisqa, lekin beqiyos sermazmun umr koʻrdi va butun hayotini xalq, Vatan ishiga fidoyilik namunasini koʻrsatdi. Shoirning hayoti yoshlar uchun ibrat maktabi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Adabiyotlar:

1. Azimov Sarvar. Hamid Olimjon abadiyati. T.: 1967.
2. Karimov N. Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar, T.: 1985. 248
3. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar toʻplami. Oʻn tomlik. T.: 1982-1985.
4. Hamid Olimjon Oʻrik gullaganda. Sheʼrlar, drama. T.: 1990. 296 b.
5. www.lex.uz